

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

XV



**O`ZBEKISTON REESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO`PLAMI

XV

**"Durdona" nashriyoti
Buxoro – 2025**

UO‘K 81'372(08)+81'25(08)

81.2-3+81.2-7

T 43

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari XV [Matn] : to'plam / M.I. Gadoeva.- Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025.-256 b.

KBK 81.2-3+81.2-7

To'plamda Respublikamiz olimlari, ilmiy tadqiqotchilarning filologik mavzular doasidagi, jumladan, aniq til dorisidagi lingvistik qarashlari; qiyosiy–tipologik izlanishlari; tillarni o'rganish vositalari va millat, milliy madaniyatning amaliy globallashi davrida tildan foydalanish muammolari, qo'llanma, tillarni o'rganish usullari; adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik istiqbollari borasidagi fikr-mulohazalari o'z ifodasini topgan.

To'plam filologik yo'nalishdagi ilmiy izlanuvchilar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, talabalar, magistrlar va talabalarga mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati:

Xamidov O.X., (BuxDU professori), **Rasulov T.X.** (BuxDU professori), mas'ul muharrir **Rasulov Z.I.** (BuxDU f.f.d. (DSc), **Gadoyeva M.I.** (BuxDU f.f.d. (DSc), **Haydarov A.** (BuxDU professori), mas'ul kotib **Djumaeva N.Dj.** (BuxDU f.f.f.d. (PhD))

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

M.I.Gadoyeva filologiya fanlari doktori (DSc),

Taqrizchilar:

Davlatova M.X., Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
Qobilova N.S., BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

To'plamdan o'rin olgan maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligi, mazmuni va savodxonligi uchun mualliflarning o`zlari mas'uldirlar.

BuxDU Ilmiy texnik kengashda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (6-sonli bayonnoma, 25-yanvar, 2025-yil).

ISBN 978-9910-634-64-2

ЭЛЛИПТИК ГАПЛАР ТАДҚИҚОТИДА АЙРИМ ЛИНГВИСТИК АТАМАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Расулов З.И.
БухДУ

Тилнинг синтактик сатҳига оид замонавий тадқиқотларда ўзига хос атамалар пайдо бўлмоқда. Шунинг алоҳида қайд этиш жоизки, эллипсис гапларнинг грамматик маъносини ҳеч бир атама тўлиқлигича очиб бера олмайди, зеро мазмун-мундарижасига кўра ҳар бир атама доим нисбийлик касб этади, улар қайсидир маънода шартлидир. Бошқа сўз билан айтганда, бир атама ҳажми жиҳатдан кўпми, камми фарқланиши мумкин.

Бироқ, нима бўлганда ҳам танланган атама ўзи билдираётган тушунчани англаб олишда ҳеч қанча қийинчилик туғдирмаслиги лозим.

Эллипсиснинг грамматик моҳиятидаги турли хусусиятларни акс эттирувчи атамалар орасида, авваламбор, "Лингвистик атамалар луғати"даги («Словарь лингвистических терминов») "Эллипсис" номли луғавий мақолага киритилган кичик семантик ҳажм атамаси сифатида ифодаланган "ситуатив эллипсис" билан бир қаторда "контекстуал эллипсис"ни учратиш мумкин¹.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, "ситуатив эллипсис" атамаси ахборотнинг аниқлигига кўра тўла талабга жавоб бермайди.

Айтайлик, контекстуал талабларга кўра, сўз тушириб қолдирилишини билдирадиган "контекстуал эллипсис" атамаси эллиптик гап таркибининг синтактик моҳиятини етарлича аниқликда очиб берса, "ситуатив эллипсис" атамаси орқали, авваламбор, қандай синтактик структуралар таснифланиши номаълум.

Ҳақиқатдан ҳам, "ситуация" атамасидаги кенг маъно "ситуатив" детерминаторига ҳам кўчиб ўтади, ва бу маъно "ситуатив эллипсис" атамасида ҳам мужассамлашиб уни семантик жиҳатдан мужмал, айрим ҳолларда ноаниқ қилиб юборади.

Бунинг устига, таҳлил қилинаётган атамани тушунтиришда "контекст" ва "ситуация" атамаларининг қиёсий маъноси семантик

¹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: СЭ, 1969. –С.525.

жиҳатдан айрим ҳолларда ўхшашлиги билан қийинчилик туғдиради. Бу эса "контекстуал эллипсис" ва "ситуатив эллипсис" атамаларини бир-биридан фарқлашга тўсқинлик қилади.

Гап шундаки, улар оптимал ҳолатда турли грамматик хусусиятларга эга ва синтактик сатҳда бошқа-бошқа асослардан ҳосил бўлувчи эллиптик структураларнинг иккита гуруҳ кўринишидаги терминологик зиддиятини ҳосил қилиши керак.

Шуниси диққатга сазоворки, Л.С.Бархударов¹ эллиптик гапларни ноль вариантли сўз экспликацияси усулига кўра таснифлайди ва мумкин бўлган икки турли гапларни ажратади: 1) синтагматик тўлдириладиган ва 2) парадигматик тўлдириладиган гаплар. Кўриниб турибдики, олим юқорида қайд этилган атамалардан фойдаланмаган.

Бугунги кунга келиб, эллиптик гапни ўрганишда икки хил ёндашувни кузатиш мумкин:

1) эллипсис - бу гапнинг таркибий жиҳатдан мажбурий элементлари сифатида фақат эга ва кесимнинг тушиб қолдирлиши жараёни² ва

2) ҳар қандай элементи (ҳоҳ мажбурий таркибий қисми бўлсин, ҳоҳ факультатив бўлсин) тушириб қолдирилган гап - эллиптик гап ҳисобланади³.

Қуйидаги семантик жуфтликлардаги типик эллиптик гаплар ва уларнинг тўлиқ вариантларини солиштирайлик:

She seemed insensible. – She seemed to be insensible.

He came in, eyes open and ugly. – He came in, eyes being open and ugly.

Early morning. – It is early morning.

Nobody around. – There is nobody around.

Perfect silence. – It is perfect silence.

The boy we spoke about is not guilty. – The boy about whom we spoke is not guilty. guilty.

¹ Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1966. –С.180-187.

² Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ структуры предложения. –Киев: «Вища школа», 1971. –С.171; Иофик Л.Л. (Ред.) Структурный синтаксис английского языка. – Л.: ЛГУ, 1972. –С.109.

³ Ilyish B. The Structure of Modern English. -М.-Л.: Просвещение, 1971. –Р.252; Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. –М.: Высшая школа, 1966. –С.180.

Glass cracks when heated. – Glass cracks when it is heated.

Бундан келиб чиқадики, таркибий элементларидан бирортаси (биринчи даражали ёки иккинчи даражали бўлаклар) тушириб қолдирилган гапнинг эксплицит таркиби контекст асосида (синтагматик) воситасида тикланса ёки мунтазам формал-грамматик синтактик қонуниятлар асосида (парадигматик) тикланса, бундай гапларни эллиптик гаплар деб аташ лозим, зеро, эллипсис - бу "осонгина тикланадиган ифода элементининг (аъзосининг) тушириб қолдирилишидир"¹. Янада аниқроқ айтадиган бўлсак, исталган сатҳдаги эксплицит ифодаланган элементнинг тушиб қолдирилиши аҳамиятли бўлган ва шунга мувофиқ унинг тикланиши мумкин бўлган ҳар бир гап эллиптик гапдир.

KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY O'ZIGA XOSLIGI

Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna

f.f.d.(DSc), professor, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

Xayrulloeva Azizabonu Tojiddinovna,

Buxoro davlat universiteti magistranti, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur ish “Kiyim-kechak leksikasining lingvomadaniy o'ziga xosligi” mavzusiga bag'ishlangan. Tadqiqotda kiyim-kechak nomlarining til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqligi, ularning milliy xususiyatlari va xalq urf-odatlar bilan aloqasi o'rganiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim-kechak leksikasi lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, bu sohada farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi. Ishda kiyim-kechak leksikasining semantik, frazeologik va metaforik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kiyim-kechak nomlarining tarjima qiyinchiliklari va madaniy ekvivalentlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb masalalaridan birini xususiyatlarini tahlil qilishda amaliy ahamiyatga ega. Bu mavzu tilshunoslikda milliy madaniyatni xalqaro miqyosda tanitish va millatlararo madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: СЭ, 1969. –С.525.

MUNDARIJA

Расулов З.И. Эллиптик гаплар тадқиқотида айрим лингвистик атамаларнинг қўлланилиши	3
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Xayrulloeva Azizabonu Tojiddinova. Kiyim-kechak leksikasining lingvomadaniy o'ziga xosligi	5
Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna, Rakhmonova Jasmina Matyokubovna. The role of proverbs and idioms in english culture..	11
Djalilova Zarnigor Bakhodirovna, Nutfullayeva Lolakhon Firuzovna. How does culture and social influences effect on advertisement discourse?	15
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna. Understanding bloom's taxonomy: its role and impact on the learning process.....	20
Qosimova N.F. Tarjimada asliyatni idrok etishning kognitiv jarayonlari.....	23
Rakhmatova Mekhriniso Musinovna. Implicature of a literary discourse	26
Saidova Muxayyo Umedilloevna. Kogeziya va kogerensiya haqida nazariy qarashlar	29
Saidova Muxayyo Umedilloevna, Sayfiyeva Madina Saydullo qizi. The influence of grammatical cohesion on structural coherence in english literary discourse.....	32
Saidova Muxayyo Umidullayevna, Tursunova Sarvinoz G'afurovna. "Tom sawyerning sarguzashtlari" asarining stilistik tahlili.....	36
A.A.Haydarov, M.U.Yodgorova. Inson tuyg'ulari ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	39
Haydarov Anvar Askarovich, Alimova Mubina. So'z ma'nolarining intensivligi	42
Haydarov Anvar Askarovich, Sattorova Shaxrizoda Umedjon qizi. Qiyoslanayotgan tillardagi fonetik va grafik uslubiy vositalar	46
Kobilova Nargisa Sulaymonovna, Azimova Maftuna. Different viewpoints on the concept of evaluation in language	50
Хайдаров Анвар Аскарлович, Барноева Мадинабону Акбаровна. Градуонимия в узбекском и английском языках: основные подходы и методологии.....	52

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI, QIYOSIY
TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA ADABIYOTSHUNOSLIK
MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO`PLAMI

XV

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 11.02.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №86

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45